



Mavzu: "AVESTO" TA'LIMOTIDA MA'NAVIY-AXLOQIY

QADRIYATLAR.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika

yo`nalishi 1-kurs magistiri **Ibragimova Farangiza**

Oybekjon qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zardushtiylik dinining muqaddas manbasi hisoblangan "Avesto" asarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va barkamol shaxsni shakllantirishga doir g'oyalar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Unda ajdodlarimizning yosh avlod tarbiyasiga oid qarashlari, jumladan, ilm-fanga intilish, axloqiy poklik, jismoniy kamolot, mehnatsevarlik, vatanparvarlik hamda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, "Avesto"da ifoda etilgan pedagogik qarashlarning bugungi ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati yoritilib, ularning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: "Avesto", zardushtiylik, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, barkamol avlod, xalq pedagogikasi, zamonaviy jamiyat.

Аннотация: В данной статье научно анализируются идеи, выдвинутые в священном источнике зороастризма — произведении «Авеста», касающиеся воспитания и образования, духовности и формирования гармонично развитой личности, при этом раскрываются взгляды предков на воспитание подрастающего поколения, включая стремление к знаниям, нравственную чистоту, физическое развитие, трудолюбие, патриотизм и гуманистические качества, а также обосновывается значение данных педагогических взглядов в современном образовательном процессе и их роль в развитии современного общества, современное общество.

Ключевые слова: Авеста, зороастризм, воспитание, образование, духовность, народная педагогика, гармонично развитая личность.

Annotation: This article provides a scholarly analysis of the ideas presented in the sacred source of Zoroastrianism, the Avesta, concerning education, spirituality, and the formation of a well-rounded personality, highlighting the ancestors' views on the upbringing of the younger generation, including the pursuit of knowledge, moral integrity, physical development, diligence, patriotism, and humanistic values, as well as substantiating the significance of these pedagogical concepts in contemporary educational processes and their role in the development of modern society.

Key words: Avesta, Zoroastrianism, education, upbringing, spirituality, folk pedagogy, harmonious personality, modern society.



“Avesto” Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardagi moddiy va ma’naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va inson to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf-odatlar va qadriyatlari haqida ma’lumot beradi. “Avesto”da miloddan avvalgi XIII asrdan milodning IV asrigacha bo‘lgan tarixiy voqealar yoritilgan. Ota-bobolarimizning aql-zakovati va qalb mahsuli bo‘lgan ushbu noyob yodgorlik, turli zamon to‘fonlari va murakkab sinovlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelgani, hududimizda qadimdan boy madaniyat mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Unda ma’naviy yuksalishga chaqirish, insonlar o‘rtasida mehr-oqibatni mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g‘oyalar, ma’budlar shoniga madhiyalar va duolar ham o‘z ifodasini topgan. Zardushtiylik dini dualizm, ruh va moddiy hayotning uyg‘unligi tamoyiliga asoslanadi; unda butun olam yorug‘lik va zulmat, hayot va o‘lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik kabi qarama-qarshi hodisalar o‘rtasidagi azaliy va abadiy kurashga qurilgan. Bu kurash yaxshilik xudosi Axura Mazda bilan yomonlik tangrisi Axriman orasidagi doimiy olishuv timsolida hech qachon to‘xtamaydi. Tarixchi Mas’udiyning yozishicha, podsho Doro ibn Doro xazinasida “Avesto”ning 12 ming oltin taxtaga, Balxiyning “Forsnoma” kitobi va Abu Rayhon Beruniy asarlarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra esa, 12 mingta mol terisiga tillo suvida yozilgan 32 ta kitobdan iborat nusxasi bo‘lgan. Makedoniyalik Aleksandr miloddan avvalgi 334–329-yillarda Markaziy Osiyoni zabt etgan davrda “Avesto”ning ko‘pgina sahifalari yoqib yuborilgan. Uning tibbiyot, falakiyot, falsafa va adabiyotga doir bo‘limlari esa yunon tiliga tarjima qilingan[1].

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” nafaqat diniy manba hisoblanadi, balki unda o‘sha davr ijtimoiy hayoti, jamiyat tuzilishi, moddiy olam haqidagi falsafiy qarashlar, kasblarning inson faoliyatidagi o‘rni, ayollarning jamiyatdagi mavqei, shuningdek oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlar ham o‘z ifodasini topgan. Miloddan avvalgi IV asrda Ahamoniylar Aleksandr Makedonskiy tomonidan mag‘lubiyatga uchragach Eron kutubxonasi vayron qilingan va Avestoning 3/5 qismi yoqib yuborilgan. Bu haqida Abu Rayhon Beruniy ham o‘z asarlarida ma’lumot berib o‘tadi[2].

Zardushtiylikda Ahura Mazda azal mavjud va abadiy iloh sifatida alohida mavqega qo‘yilgan. Umuman, barcha ezgu borliq uning tomonidan yaratilgan deyiladi. Har bir ezgu xilqatning yovuz ziddi esa Axriman timsolida yaratiladi. Umumlashtirib aytganda, deb



yo'zadi professor I.Xo'jamurodov, - "Avesto"da yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, ezgulik va yovuzlik bir-biriga qarama-qarshi kuchlar sifatida Ahura Mazda va Axriman timsollarida bayon etiladi. "Avesto"da dastlabki falsafiy qarashlar bilan diniy-afsonaviy tasavvurlar uyg'unlashib ketadi. Shu zaminda ma'naviy-axloqiy barkamol odam uyg'unlik-ezgulikni barqaror qila oladigan kurashchan, adolatparvar insonni shakllantirish g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi" [4].

"Avesto"da insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishga qaratilgan ko'plab o'limas g'oyalar, pandlar va ibratli fikrlar mavjud. Shuningdek, muqaddas manbada Markaziy Osiyodagi ko'plab joylarning nomlari qayd etilgan. Ushbu yodgorlikdagi ayrim qaydlar, ishoralar, nom va atamalar hamda "Bindaxshin"ning alohida fasllari, zardushtiylikning ilk kurtaklari paydo bo'lgan davrlarda ham hozirgi Movarounnahr va Xuroson hududlarida ma'naviyat, ta'lim va tarbiya ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

"Avesto"ning barcha bo'limlari inson sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lash g'oyalari bilan sug'orilgan. Unda yer va osmon ne'matlarini sevish, tabiatdagi barcha hayotiy boyliklarni asrab-avaylash inson uchun muqaddas burch va mas'uliyat sifatida talqin etiladi. Ajdodlarimiz merosi bo'lgan "Avesto"da bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning qarashlariga ko'ra, tarbiyali farzand har qanday ezgu ishni amalga oshirishga qodir bo'ladi. Avvalo, bunday bola intizomli bo'lib voyaga yetadi, intizom esa barcha yaxshiliklarning poydevori hisoblanadi. Shu sababli ajdodlar farzandlarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, ularni hunar va kasbga o'rgatishga katta e'tibor berganlar. Muqaddas kitobda belgilangan ushbu vazifalarning ahamiyati bugungi kunda yanada ortib bormoqda. Chunki mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik va islohotlarning samarasi ko'p jihatdan yoshlarning iste'dodi, salohiyati, tashabbuskorligi, fidoyiligi, vatanparvarligi va ma'naviy-ma'rifiy darajasiga bog'liqdir.

"Avesto"da qayd etilganidek, yaxshi ustozlar "sog'lom aql-hushli farzandlarni, jasur, dono va turli tillarni biladigan o'g'il- qizlarni, elni balo-qazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlarni, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan avlod"ni tarbiyalaydi. U yoshlar qalbida o'z dini, xalqi, yurtiga mehr uyg'otadi, ularni halol mehnat evaziga rizqu-ro'z topib yashashga o'rgatadi, pokdomanlik, hamkorlik, odamlarga faqat yaxshilik istash o'quvchilarga faqat donishmand ustozlardan yuqadi. Muqaddas manbada



aytilganidek, yaxshi ustoz yoshlarni rost yo'lga boshlamog'i, yaxshilik yo'lida rahnomalik qilmog'i, ularning qalbiga hayotga muhabbatni singdirmog'i lozim. "Avesto"da qiz bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berish lozimligi bir necha o'rinda maxsus ta'kidlangan: "O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar ilmu donish o'rganishga jiddiyroq kirishsinlar. Zeroki, ular ota-ona xonadonida bo'lgan vaqtlarida ota ruzg'orini tartibga solib, ziynat berib borsalar, jufti haloli manziliga borgach, bolalar tarbiyasi, ta'lim bilan, kelajak nasl tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim bo'ladi". Muqaddas manbada har bir farzand biron kasb bilan shug'ullanishi, band bo'lishi, mehnat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, birovlariga muhtoj bo'lib, tilanchilik qilishlik qoralangan. Ana shu talabdan kelib chiqib, ta'limning amaliyot bilan bog'lanib olib borilishiga ajdodlarimiz jiddiy e'tibor berishgan. ("Avesto". Vandidod, Asha qasidasi. 208-214-betlar)[7].

Zardushtiylik dualizmi bilan ham o'xshashliklarga ega. Zardushtiylarda oila tarbiyasi masalasiga nihoyatda katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, zardushtilar jamoasida nikoh bir umrga muhrlangan bo'lib, bir erkakga ikki nikoh yoki vaqtincha nikoh mumkun bo'lmagan. Er-xotinning bir-biriga xiyonati qattiq qoralangan. Begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qilingan, jazolangan va nikohdagi er uchun "xarom" hisoblangan[5]. Avestoshunos H.Homidovning ta'kidlashicha, Avestoning Yasht qismida Axura Mazda va Zardushtning kelin kuyovlarga da'vati va murojatlari keltirilgan[6]. "Avestoda doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz- qo'lni bir necha bor yuvish, qo'lni yuvmasdan turib tananing boshqa a'zolarini ushlamaslik, sochni toza tutib tirnoqlarini tozalab yurish haqida maslahatlar berilgan[7]. Nafaqat diniy duolar, balki chorvachilikning rivojlanishi, ko'payishi, bog'lar barpo etilishi (agronomiya), yerni sug'orish va ularni yetishtirish (melioratsiya haqida), tabiiy boyliklar va uning atrofidagi hududlarni muhofaza qilish (ekologiya), salomatlik (tibbiyot), vatanni, chorva mollari va aholini tashqi dushmanlardan himoya qilish (harbiy san'at), oila, erkak va ayolning burchi va ularning huquq va majburiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bularning barchasi bu bebaho merosni ajdodlarimizning qomusiy ne'mati, deyish huquqini beradi. Ushbu din ta'limotida inson mutlaq yovuzlikga qarshi kurashda Xudoning yordamchisi bo'lib xizmat qilish uchun yaratilgan va unga iroda kuchi berilganligi e'tirof qilingan. Ezgulik va yovuzlik ob'yekti bo'lgan inson faqat tug'ma donishmandlik o'lchovi bilan o'z tanlovini qilishda mutlaqo



erkinligi har bir inson nima yaxshi nima yomonligini vijdon yordamida aniqlay olishi aytiladi. “Donolik”, ya’ni, aql tushunchasi Zardusht ta’limotida to‘g‘ri tanlash va ma’naviy yuksalish quvvatini bildiradi. Ushbu dinda bola tarbiyasi masalasiga ona qornidayoq e’tibor qaratilgan. Jumladan, ayol qornidagi go‘dak to‘rt oy o‘n kunlikda vujudiga ruh ungan deyilgan[8]. “Avesto” da bolalarga ta’lim va tarbiya berish shakllari quyidagicha amalga oshirilgan:

- diniy-axloqiy tarbiya;
- jismoniy tarbiya;
- o‘qish va yozishga o‘rgatish.

Zardushtiylikda ruhoniyluk ta’limoti odatda 7 yoshdan boshlanib, 15 yoshda yetuklik davriga yetgan deb hisoblangan. Miloddan avvalgi I ming yillikda yozma til yo‘qligi sababli ta’lim og‘zaki shaklda amalga oshirilgan. Marosimlarda xudolarni chaqirish va ularni ulug‘lash maqsadida she’riy san’at o‘rgatilgan. Adolat tushunchasi nafaqat davlat strategiyasida, balki zardushtiylarning kundalik hayotida ham muhim o‘rin tutgan. Adolatsiz insonlar yovuzlikning xizmatkorlari sifatida qaralgan va ularga qarshi kurash shafqatsizlik bilan olib borilishi lozim deb hisoblangan. Adolatli qozi Axura Mazdaga, nohaq hukm qiluvchi esa Axru Manyuga o‘xshash deb qayd etilgan. Tabiatga hurmat yuqori darajada e’tirof etilgan: suv, havo, tuproq va olov nafaqat amaliy ishlar, balki hatto fikr bilan ham ifloslanmasligi lozim deb hisoblangan. Zardushtiylarning uylari toza va ozoda bo‘lishi nafaqat diniy urf-odat, balki ijodiy mehnat natijasi sifatida qadrlangan. Dinda mehnatsevarlik alohida rag‘batlantirilgan. Jumladan “Qachonki egatlarda urug‘ ekilsa, devlar o‘rinlaridan ko‘padilar. Qachonki bug‘doy gurkirab ko‘karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar. Qachonki bug‘doy xirmonga uyulsa devlar nobud bo‘ladilar” [7] deyilishi, birinchidan, chorvador aholining dehqonchilikga rag‘batini oshirish bo‘lsa, ikkinchidan, ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash ham hisoblangan. “Avesto”da ta’lim tizimining turli bosqichlarida kitob o‘qishning afzalligi haqida “Ko‘ngil bilan o‘qigan kishi poklik va ehtiyotkorlik beradi” yoki “Haomadan nurli farzandlar, solih zurriyotlar dunyoga keladi” deyiladi. “Haoma nasklarni o‘rganuvchilarga shon-shuhrat va hikmat ato etadi”. Bu zardushtilikda kitob ilm olishning asosi vositasi bo‘lganligidan, ilm olish rag‘batlantirilganidan dalolat beradi. Islom dini bilan qiyosiy taqqoslaydigan bo‘lsa



zardushtiylikda islomdagi kabi ilm olish nihoyatda rag'batlantirilganligining guvohi bo'lamiz. Avestodagi ta'lim va tarbiya haqidagi fikrlar, ustozning talabaga, ustozning donishmandga, donishmandning yosh avlodga qaratilgan nasihatlar asosida 3 ming yil avvalgi ta'limiy-tarbiyaviy jarayon yondashuvlarini o'rganish mumkin. Jumladan, "Andarz-u danag mard" qo'lyozmasida donishmand o'g'liga yuzlanib, pand-nasihat qiladi, o'rgatadi, buyuradi: "O'g'lim! Qo'rquvni his qilmaslik uchun gunohsiz bo'ling. Boy bo'lish uchun aqlli bo'ling. Yaxshi do'stlar borligiga shukr qiling... Qarindoshlar va do'stlarga itoat qiling va ustozingiz bilan janjallashmang... Xotiningiz va bolalaringizga eng yaxshi va mehribon munosabatda bo'ling va o'rgating" [9] deyilgan. Zardushtiylikda oila boshlig'i birinchi navbatda oilaviy tarbiyada nasihat berish, keyin esa o'z farzandlariga ta'lim berish majburiy vazifasi hisoblangan.

Zardushtiylar orasida ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inida ta'lim 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olgan. Yetti yoshgacha bolalarga tizimli ta'lim berilmagan bo'lib faqat zardushtiylikning qonuniyatlari bilan tanishtirilgan. Bu yoshgacha zardushtiylar o'z bolalarini Axriman (yovuz rux) gunohlari va ta'siridan uzoqda deb hisoblashgan. Bola yetti yoshgacha to'lgan paytda muqaddas belgilar bilan maxsus kiyim kiygan va yetti yoshda bola yaxshi va yomonni ajrata olishini hisobga olib, unga ma'lum vazifalar yuklatgan. Zardushtiylik diniga ko'ra farzand ota-onalarining salbiy jihatlari uchun javobgar hisoblanmagan, balki ota-onalar farzandlarining noto'g'ri tanlovidan himoya qila olmasalar ular javobgar hisoblangan. Ota-onalarga qaratilib shunday deyiladi: "Agar farzand yomonlikga moyil bo'lib tug'ilgan bo'lsa bu sizning muommoingiz siz shunday bolalarga loyiqsiz, chunki ularni siz tarbiyalagansiz" deyiladi. Ya'ni bolalarga johil va ahmoq sifatida munosabatda bo'lmaslik kerakligi uqtirilgan. Zardushtiylik dinida farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berilganligidan quyidagi so'zlar dalolat beradi: "Ey, Axura Mazda, ruhingni turli-tuman narsalarda gavdalantirgansan, Aql berib, hayotni tanaga kiygansan. Har kim o'ziga yoqadigan yo'lni tanlashi uchun amallar va ta'limotlarni yaratdi". Zardushtiylarning madrasa kabi ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'limning natijasi san'atning 7 turini mukammal egallash hisoblangan. Bular: o'qish, sanash, kamondan otish, otda chopish, diniy qonunlar, qiroat va qo'shiq aytish. Yozish va hisoblash ta'limning eng past darajasi edi. Notiqlik va "shirin so'z" boshlang'ich ta'limning eng yuqori darajasi



hisoblangan. Voizlar (notiqlar) kotiblar va xattotlarga qaraganda jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan. Yozishni, sanoqni yaxshi bilgan kishilar hunarmandlar qatoriga qo'yilgan. Notiqlar esa din yetakchilari darajasiga ko'tarilgan. Zardushtiyar jismoniy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan maqsad yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va yosh avlodni mehnatga tayyorlash edi. O'g'il bolalarga kurash, ot egarlash, ot minish, chorva boqish va ularni qaroqchilardan himoya qilishda qulol-yarog'lardan foydalanish o'rgatilgan. Ta'lim tizimida bilimlarni o'zlashtirish, dars olish va dam olish vaqtining aniq belgilanishi diqqatga sazovordir. "Ilmni kunning boshida va oxirida, kechaning boshida va oxirida olishi, aql-idrokda to'la bo'lishi, oxir-oqibat xudolarni ulug'laydigan, ular sharafiga samimiy so'z aytishi kerak. U kecha va kunduzda maroqli dam olishi, shundan so'ng o'tmish donishmandlarining barcha merosini o'zlashtirish uchun ilm yo'lga intilishi kerak"[7] deyiladi. Boshlang'ich ta'limni olgan har bir yosh mashg'ulot yakunida Axuramazda nomiga qasamyod qilingan. "Yaxshi amallarni bajarishda sobitman va tavba qilishda barcha gunohlardan yuz o'giraman. Men qalbmning olti xususiyatini yomonlikdan saqlagan holda, amallarning pokligini asrayman: tafakkur quvvati, so'z qudrati, ish kuchi, ehtiyotkorlik, aql va donolik" [11]. Zardushtiylik ta'limotida ilm va bilim kuchiga chuqur ishonch bildirilgan bo'lib, jamiyat taraqqiyotida ilm-fan va donishmandlikning ustuvor ahamiyat kasb etishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shundan kelib chiqib, qadimiy ajdodlarimiz nafaqat sog'lom avlod dunyoga kelishini ta'minlash haqida qayg'urganlar, balki go'daklik davridan boshlab bolalarning jismoniy kamolotiga ham jiddiy yondashganliklarini "Avesto" manbasi yaqqol tasdiqlaydi.

Ushbu ta'limotda vatanparvarlik, axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya bilan bir qatorda, jinsiy, mehnat hamda tadbirkorlik tarbiyasiga ham alohida urg'u berilgan. Natijada yosh avlod qalbida rostgo'ylik, mehr-shafqat, o'zaro yordam va xayrixohlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Bugungi kunda yosh avlodni jamiyat ehtiyoj va talablariga mos tarzda tarbiyalash eng muhim va dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Afsuski, kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqish tobora susayib bormoqda va ommaviy madaniyatning kuchli ta'siri yoshlarning dunyoqarashi hamda ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan qaralganda, zardushtiylik ta'limotida tarbiya masalasiga oid ilgari surilgan g'oya va nasihatlar bugungi davr uchun ham muhim



ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlardan ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol avlodni voyaga yetkazishda samarali foydalanish mumkin.

“Avesto” asari nafaqat diniy manba, balki Markaziy Osiyo xalqlarining pedagogik tafakkuri, ta'lim mazmuni hamda o'qitishning shakl va usullarini yoritib bergan eng qadimgi tarixiy-pedagogik yodgorliklardan biri sifatida alohida qadrlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Avesto» // <https://oyina.uz/kiril/teahouse/1194>.
2. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар.-Т.,1968. - Б. 238.
3. Хўжамуродов И.Р.Авестода маънавият масаласи // Мулоқот, 1996,1-сон. Б.59-61.
4. А.Аширов. “Авесто” ва зардуштийларнинг оила турмуш маросимлари ҳақида//Ўзбекистонда ижтимои фанлар. 2002. №1. Б.50;
5. Ҳ.Ҳомидов. “Авесто” фазлари. Т.:, 2001. Б.59.
6. А.Аширов.Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари.Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Милли кутубхонаси нашриёти. Тошкент. 2007. Б.58.
7. “Авесто”, А.Маҳкамов таржимаси.- Б.154.
8. Зардуштийлик матнлари.О.М. Чунакова таржимаси. “Восточная”.Ран. 1997.
9. “Авесто. Хорде Авеста (Кичик Авеста) / Авесто матнини тайёрлаш, таржима, сўзбоши, М.В.Чистяков шарҳи. - СПб., 2005.с-81.